



THE PROBLEM OF THE JUDICIAL SYSTEM AND PERSONNEL IN IT IN THE EARLY YEARS OF INDEPENDENCE IN UZBEKISTAN

Abdukayum Mahkamov
independent researcher
Karshi State University
Uzbekistan, Karshi

ABOUT ARTICLE

Key words: people's court, Tashkent City Court, Supreme Court, Criminal Court.

Received: 17.10.24

Accepted: 19.10.24

Published: 21.10.24

Abstract: This article covers the problems of the judicial system and personnel during the years of independence, as well as information on non-compliance with the deadlines for criminal cases by judges, on the basis of archival documents. A large part of the cadres were specialists formed in the Soviet era, and the fact that in the conditions of independence the new legal foundations of the judiciary were mastered by them, in a sense, demanded great strength and enthusiasm, a new generation of judges in the years of independence was formed in stages, is shown by sources.

O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA SUD TIZIMI VA UNDA KADRLAR MUAMMOSI

Abdukayum Mahkamov
mustaqil izlanuvchi
Qarshi davlat universiteti
O'zbekiston, Qarshi

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: xalq sudi, Toshkent shahar sudi, Oliy sud, jinoyat sudi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida sud tizimi va kadrlar muammolari shuningdek, sudyalardan jinoyat ishlarini ko'rish muddatlariga rioya etilmaganligi haqidagi ma'lumotlar arxiv hujjatlarida asosida yoritilgan. Kadrlarning katta qismi sovet davrida shakllangan mutaxassislar bo'lib, mustaqillik sharoitida sud hokimiyatining yangi huquqiy asoslarini ular tomonidan o'zlashtirilishi ma'lum

manoda katta kuch va g'ayratni talab etganligi, mustaqillik yillarida sudyalarning yangi avlodi bosqichma-bosqich shakllanib borganligi manbalar asosida ko'rsatib berilgan.

СУДЕБНАЯ СИСТЕМА В ПЕРВЫЕ ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ УЗБЕКИСТАНА И КАДРОВАЯ ПРОБЛЕМА В НЕЙ

Абдукаюм Махкамов

Независимый исследователь

Каришинского государственного университета

Узбекистан, Кариши

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: народный суд, Ташкентский городской суд, Верховный суд, уголовный суд.

Аннотация: В данной статье освещаются проблемы судебной системы и кадров в годы независимости, а также информация о несоблюдении судьями сроков рассмотрения уголовных дел на основании архивных документов. Значительная часть кадров-специалисты, сформировавшиеся в советское время, что в условиях независимости освоение ими новых правовых основ судебной власти потребовало определенных усилий и энтузиазма, что в годы независимости постепенно формировалось новое поколение судей.

KIRISH

1991 yil O'zbekiston Respublikasida xalq sudi, viloyatlar, Toshkent shahar sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi va O'zbekiston Respublikasi Oliy sudidan iborat umumiy yurisdiksiya sudlari faoliyat yuritardi. 1991-yilda O'zbekiston Respublikasining barcha tuman va shahar xalq sudlarida 447 nafar sudya mavjud bo'lib, ushbu yilda ular tomonidan 41287 ta jinoyat, 66284 ta fuqarolik, 62143 ta ma'muriy huquqbuzarlik ishi, hukm ijrosiga oid bo'lgan 33797 ta ish, jami bo'lib 203511 ta ish ko'rib chiqilgan[1].

ASOSIY QISM

1992 yili O'zbekistonda 676 nafar sudya faoliyat ko'rsatib, ular tomonidan 35475 ta ish ko'rib chiqilgan. 1995 yili 716 nafar sudya (47912 ta ish ko'rilgan), 1999 yili 716 nafar sudya (54309 ta ish ko'rilgan), 2000 yili sudyalar soni 566 nafar (46435 ta ish ko'rilgan) faoliyat ko'rsatdi[2].

1991-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar sudida 259 nafar sudya mavjud bo'lib, birinchi instansiyada 1245 ta jinoyat va fuqarolik ishini, kassatsiya tartibida 11861 ta, nazorat bosqichi sifatida 4731 ta, jami bo'lib 17198 ta ishni ko'rib chiqqan[3].

Sudyalar tomonidan jinoyat ishlarini ko'rish muddatlariga rioya etilmaganligi haqidagi

ma'lumotlar arxiv hujjatlarida saqlanib qolgan. 1991-yil respublikada xalq sudlari tomonidan 2528 ta ish kechikib ko'rilgan. Viloyat sudlarida ham ahvol shunday edi. Masalan, Toshkent shahar sudi 62,0%, Samarqand viloyat sudi 44,4%, Toshkent viloyat sudi 41,7%, Surxondaryo viloyat sudi 38,5% ishlarni kechikib ko'rgan[4].

1995-yili O'zbekiston bo'yicha 52178 shaxs sudlari tomonidan sudlangan bo'lsa, shundan 49 shaxsga nisbatan oqlov hukmi, 33 ta shaxsga nisbatan ishlar rehabilitatsiya asosida harakatdan tugatilganligi, 2225 ta shaxsga nisbatan ishlar qo'shimcha tergovga qaytarilgan. Ko'shimcha tergovga qaytarilgan ishlarning aksariyati tergov organlari tomonidan harakatida jinoyat alomatlari yo'qligi uchun bekor qilinib, yangidan ko'rish uchun sudlarga qaytib kelmagan[5].

1995-yil 17-aprel kuni Namangan viloyati Ichki ishlar boshqarmasi korrupsiyaga qarshi boshqarma tergovchisi Ahmedov tomonidan fuqaro Oxunov Rahmonga nisbatan JKning 167-moddasi 3 qismi "b" bandi bilan jinoiy ish qo'zg'atilib, tergov olib boriladi va ayblov xulosasi bilan ish sudga yuborilgan. Namangan shahar sudi 1995-yil 14 iyul kuni ishni ko'rib, qo'shimcha tergovga qaytaradi. 1995-yil 7 oktabr kuni Oxunov harakatlarida jinoyat alomatlari bo'lmaganligi uchun ish harakatdan tugatiladi. R.Oxunov ning konstitutsion huquqlari poymol qilinib, 157 kun huquqni muhofaza etuvchi idoralar tomonidan sarson qilinadi. Inson huquqini poymol qilish sudni va odil sudlovlikni obrusini to'kish, xalq nazarida sudni qoralovchi organ qilib ko'rsatishga o'zining jiddiy qonunbuzarlik harakatlari bilan yo'l qo'ygan sudyalarning ham bor edi. Andijon viloyati Xo'jaobod tuman sudining 1995 yil 26 dekabr kunidagi hukmi bilan (sudya T.Nosirov) Parpiyeva Lolaxon O'zbekiston Respublikasi JKning 277-moddasi 2 qismi "g" bandi bilan 2 yil muddatga ozodlikdan mahrum qilinib, JKning 72-moddasi asosida shartli ravishda hukm qilingan. Sud hukmiga ko'ra, L.Parpiyeva Xo'jaobod shahri Nishonov ko'chasida Xo'jamberdiyeva bilan o'zaro janjallashib, bezorilik jinoyatlarini sodir qilganlikda ayblangan[6].

Shikoyat berilgan qarorlarga nisbatan bekor qilingan va uzgartirilgan sud karorlarining soni Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlarida 100%, Andijonda 88,8%, Jizzaxda 75%, Qashqadaryoda 50%, Samarqandda 30,7%, Toshkentda 29,8% tashkil qildi. Surxondaryo viloyatidan jami bo'lib 3 ta ish tekshirilgan va chiqarilgan sud karorlari bekor qilingan. Sirdaryo viloyatidan tekshirib chiqilgan ishlarning soni 10 tani tashkil etsa, ushbu ishlarning 5 tasi bo'yicha chiqarilgan sud qarorlari bekor qilinib, qolgan 5 tasi bo'yicha esa qarorlar o'zgartirilgan. Yoki Jizzax viloyatidan tekshirilgan 4 ta ishning 3 tasi bo'yicha qabul qilingan sud qarorlari qonunsiz deb topilib, bekor qilingan[7].

1995-yil Toshkent viloyati Yangiyo'l tuman sudining katta sud ijrochisi X.Bayzakov Yangiyo'l shahar sudiga, Toshkent tuman sudining katta sud ijrochisi P.Saloxuddinov Qibray tuman sudining sudyasi bo'lib, A.Ikromov tuman sudining sud ijrochisi Toshkent tuman sudiga, Toshkent tuman huquqiy maslahatxona advokati X.Alimqulov Ohangaron tuman sudiga, Adliya

vazirligi sudlar faoliyatini tashkiliy ta'minlash boshkarmasining yetakchi maslahatchisi B.Roziqov Zangota tuman sudiga, Bo'stonliq tuman notarial porasining katta notariusi U.Karimov Olmaliq shahar sudiga Adliya Vazirligining yetakchi maslahatchisi I.Madaminov Buka tuman sudiga, Toshkent viloyat sudi sudyasi A.Tadjibayeva Zangiota tuman sudining sudyasi, Toshkent viloyat sudining sudyasi O.Ermatova Oqqo'rg'on tuman sudining raisi, Quyichirchiq tuman notarial idorasining notariusi G.Shukurova Quyichirchiq tuman sudining sudyasi, Toshkent viloyat sudining kotibi A.Abdullayev O'rtachirchiq tuman sudining sudyasi, etib tayinlandi[8].

Toshkent viloyatida 1995-yil sudyalarni vakolat muddatlari tugashi munosabati bilan sudyalik lavozimiga kayta tavsiya etilganlardan 15 ta nomzod kayta tayinlandi. Yuqorichirchiq tuman sudining sudyasi S.Gadiyeva pensiya yoshiga yaqinlashganligi uchun sudya lavozimiga qayta tavsiya etilmadi. Olmaliq shahar sudi sudyasi X.Karimqulov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyiga ko'ra vazifasidan ozod etilgan.

Zangiota tuman sudining sud ijrochisi R.Xaydarov boshqarmaga konsultant, shu tuman sudining ijrochisi M.Tajiboyev Yangiyul tuman sudining katta sud ijrochisi vazifasiga o'tishi, Toshkent tuman sudining sud ijrochisi N.Karimov Toshkent Davlat universitetiga o'qishga kirishi munosabati bilan ishdan bo'shagan. Yuqorichirchiq tuman sudining ijrochisi B.Maxkamov Yuqorichirchiq tuman notarial idorasiga Bekobod shahar sudining katta sud ijrochisi M.Xudoynazarova Bekobod shahar davlat notarial idorasiga notarius, Yangiyul shahar sudining katta sud ijrochisi Z. Samiyev shu shahar notarial idorasiga notarius lavozimiga ishga o'tdi[9].

1996-yilda Qoraqalpog'iston Respublikasi sudlanganlik 437 ta shaxsga nisbatan ortgan. Sudlangan 2218 ta shaxsdan 84 tasiga yoki 3,8 foizga nisbatan hukm bekor kilingan. Jizzax viloyatida malakasi o'zgartirilmagan holda jazo chorasi 51,4 foizga nisbatan kamaytirilgan. Viloyat sudi tomonidan ko'rilgan 11 ta hal qiluv qaroridan 3 tasi ya'ni 27,3 foizi kassatsion tartibda bekor qilingan[10].

Qarorlarning bekor qilinishi va o'zgartirilishining Respublika bo'yicha ko'rsatgichi 1995-yilda 41,9% tashkil etdi. Masalan, Andijon viloyat sudi bo'yicha sudyalari R.Maqsudov, T.Mamatov, O.Usmanov, M.Sattarov, N.Xujamberdiyev, Surxondaryo viloyat xo'jalik sudining sudyalari A.Nazarov, D.Xasanova va sudning sobiq raisi X.Karshiyev, Sirdaryo viloyat xo'jalik sudining sudyasi A.Qoldiboyev, S. Numanova, Samarqand viloyat xo'jalik sudining sudyasi V.Dunayeva, sud raisining o'rinbosari U. Madjidovning sud ishlar bo'yicha chiqargan qarorlari bekor kilingan. Sud qarorlarining bekor qilinishiga, asosan sudyalardan tomonidan ish materiallari yuzaki o'rganilganligi, nizoni hal qilish uchun zarur hisoblangan xujjatlar talab qilinmasdan, ish xolatlari to'liq aniqlanmaganligi sabab bo'lgan.

Misol tariqasida Respublika Oliy Xo'jalik sudi sudlov hay'ati tomonidan Respublika XPKning 88-moddasi asosida tekshirib chiqilgan Andijon viloyat xo'jalik sudida kurilgan bankrot

bo'lganlikka doir ishlarni olish mumkin. Andijon viloyat "Tadbirkor" aksionerlik tijorat banki xo'jalik sudiga arizalar bilan murojaat etib, shu viloyatdagi "Audi", "Lutfulloh", "Tuxvatillo", "Andaolim", "Oymomo", "Zilola", "Abdurahimov", "Xasancha Axmedov", "Firdavsiy", "Sodiqjon", "Saidakromxon" nomli xususiy tijorat firmalari va kichik korxonalarni bankrot deb e'lon qilish, kredit so'mmasini undirish, garovga qo'yilgan mulkni kim oshdi savdosida sotirish haqida qaror qabul qilishni so'ragan. Da'vogar tomonidan taqdim etilgan ushbu arizalar viloyat xujalik sudining sudyalari Sattorov, Maqsudov, Usmonov, Mamatov va Xo'jamberdiyevlar tomonidan chuqur o'rganilmagan. Ish yuzaki ko'rib, qonunsiz hal qiluv qarorlar qabul qilingan. Namlari qayd etilgan sudyalar o'z vazifalariga o'ta mas'uliyatsizlik va beparvolik bilan qarab, bank boshqarmasi tomondan katta miqdordagi pul mablag'larni xususiy korxonalariga garovga qo'yilgan mulkning amalda bor-yo'qligi, narxlarini va kredit shartnomalarining adliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilganligi hamda mulk egalari yashash joylarini to'liq aniqlamasdan berib yuborganligiga, ularning bu harakatlari qonunga xilof ekanligiga umuman e'tibor bermasdan, tegishli baho bermaganlar. Kreditorning O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 1993-yil 28-iyunda tasdiqlangan 33-sonli "Ishlab chiqarish xarajatlari va xomashyolar zaxirasi uchun qisqa muddatli kredit berishni tashkil etish qoidalariga zid ravishda garovga qo'yilgan mulkning so'mmasiga nisbatan kredit uchun ortiqcha so'mma berib yuborganligi ham sud muhokamasida o'z ifodasini topmagan[11].

1996-yili Respublikada odil sudlovni amalga oshirishdagi halol mehnatlari va huquq tartibotni ta'minlashdagi katta xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining sudyasi Karimjon Usmonovich Saidov "Jasorat" medali bilan, Samarqand viloyat xo'jalik sudining raisi Bobomurodov San'at Murodovich va Jizzax viloyat sudining sudyasi Xolmumin Almatovlar "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist" faxriy unvonini qo'lga kiritdi[12]. Shuningdek, O'zbekiston sud organlarining bir guruh xodimlari "Shuhrat" medali bilan taqdirlandi. Oliy xo'jalik sudining sudyasi Qosimova Aqida, Surxondaryo viloyat sudining kotibasi Otaqo'ziyeva Zubayda Safarovna, Adliya vazirligi qonunchilik boshqarmasining bo'lim boshlig'i Ayupov Ulug'bek Saporovich, Piskent tuman sudining devonxona mudirasi Teshaboyeva Salima Rahimovna, Adliya vazirligi kadrlar boshqarmasining bosh maslahatchisi Tyumenova Raisa Azimovna, Qashqadaryo viloyat sudining sudyasi Eshmatov Parda Rahimovich kabilar "Shuhrat" medali sohibi bo'ldi[13].

XULOSA

Xulosa o'rnida aytganda, mustaqillikning dastlabki o'n yilligida sud tizimida kadrlar muammosi dolzarbligicha saqlanib qolaverdi. Kadrlarning katta qismi sovet davrida shakllangan mutaxassislar bo'lib, mustaqillik sharoitida sud hokimiyatining yangi huquqiy asoslarini ular tomonidan o'zlashtirilishi ma'lum manoda katta kuch va g'ayratni talab etar edi. Shunga

qaramasdan, mustaqillik yillarida sudyalarning yangi avlodi bosqichma-bosqich shakllanib bordi.

FOYDALANGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Мингбоев У.Қ. Судьялар қасамёдига содиқ бўлиши шарт // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг бюллетени. –Тошкент, 1992. –№2. –Б.4.
2. Ўз МА, М-176 фонд, 1-рўйхат, 149-иш, 80-варақ.
3. Мингбоев У.Қ. Судьялар қасамёдига содиқ бўлиши шарт // Ўзбекистон Республикаси Олий судининг бюллетени. –Тошкент, 1992. –№2. –Б.4.
4. Ўз МА, М-176 фонд, 1-рўйхат, 149-иш, 47-варақ.
5. Ўз МА, М-80-фонд 1-рўйхат, 850-иш.
6. Ўз МА, М-80-фонд 1-рўйхат, 850-иш 5-8-варақлар.
7. Ўз МА, М-72-фонд 1-рўйхат, 20-иш. 8-варақ.
8. Ўз МА, М-80-фонд, 1-рўйхат, 725-иш, 89-варақ.
9. Ўз МА, М-80-фонд, 1-рўйхат, 725-иш, 90-варақ.
10. Ўз МА, М-80-фонд, 1-рўйхат, 725-иш, 46-варақ.
11. Ўз МА, М-72-фонд 1-рўйхат, 20-иш. 12-варақ.
12. Ўз МА, М-72-фонд 1-рўйхат, 18-иш. 4-варақ.
13. Ўз МА, М-72-фонд 1-рўйхат, 18-иш. 5-варақ.